



"DEVONU LUG'OTIT-TURK" ASARIDA TOPONIMLAR

Otajonova Zilola

Termiz Davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi uchun asos vazifasini bajargan buyuk qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida uchrovchi yordamchi so'zlar tahlili va ishlatilish o'rinlari bilan tanishamiz. Toponim so'zlar til boyligi va leksikasi uchun xizmat qiluvchi serqirra hodisa ekanligi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: toponim, onomastika, gidronim, antrotopinim

Kirish: Devonu lug'otit turk“ („Turkiy so'zlar devoni“) — Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Mana shunday qimmatli ma'lumotlar bilan birgalikda toponimlar ularning qo'llanilishiga ham katta e'tibor berilgan va hozirgi kundagi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Mahmud Qoshg'ariyning umumjahon madaniyatiga qo'shgan qimmatli tuhfasini "Devonu lug'otit turk" asari tilshunoslikka doir o'lmas asar bo'lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo'yicha o'quvchilarga atroflicha ma'lumot beradigan mukammal qomusiy asar sanaladi. Bu masalalarni quyida ko'rib chiqamiz.

Muhokama va natijalar: Ayniqsa, X-XII asrlarda diyorumizda yashab o'tgan ulug' allomalar yashagan davrni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shu sababdan mazkur asar bizni nafaqat Qoraxoniylar davri, balki undan keyingi paytlardagi Movarounnahr aholisining turmush tarzi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, diniy e'tiqod hamda urf-odatlar haqida ham muhim tushunchaga ega bo'lishimizda katta yordam beradi. Shuningdek, "Devonu lug'otit turk" asari turkiy tillarning fonetikasi, grammatikasi va leksikasiga oid noyob tadqiqotlari va xulosalari bilan ham qimmatlidir. Biz bilamizki, toponimlar joy nomlarini o'rganadigan nomshunoslik sohasining bir qismi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida nomshunoslik bilan bog'liq bir qancha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Qomusiy olim toponimlar va ularning qo'llanilish o'rinlari, shevalardagi farqlari, etnik kelib chiqishiga katta e'tibor qaratgan. Quyida bir nechta misollar orqali asardagi joy nomlarini tahlil qilamiz.

1. Keshli- daryo og'zi.
2. Alish-suvning hovuzga quyiladigan joyi.
3. Alush-Qashqarda bir qishloq nomi.



4. Ulush- qishloq asosan chigil shevasida qo'llanilgan. Bolasog'un va ularning yuqori yonidagi arg'ular uchun shahar ma'nosini bildirgan. Shuning uchun Bolasog'un shahrini قوز اووش Quz ulush ham deb atashadi.

5. Azig'-qishloq nomi. Asarda bizdagi bir qishloq nomi deb keltiriladi. Bunda yozuvchi ózi tug'ilgan joyga nisbat berib o'tadi.

6. Udun-Xo'tan shahrining nomi. Xo'tanda turuvchilarga ham Udun دندن deyiladi.

7. Alin-tog'ning yumaloq va bqlqnd tomoni

8. Aq terak-Oq terak. Yag'mo shahrida Ila suvi ustidagi ko'prik nomi.

9. Ala-Farg'ona yaqinidagi bir yaylov.

10. Uzu-uyum, tepa. Qum uzu ya'ni qumtepa. Arg'ular shahrini Urukend deyish ham shundan kelib chiqqan.

11. Ila-bir daryo nomi. U turk shahrining Jayhunidir. Uning ikki qirg'og'ida ikki turk qavmi yashaydi. Ular yag'mo va tuxsi qavmidir. Boshqa ma'lumotlarga qaraganda u yerda ba'zi chigil qavmi ham yashaydilar.

12. Azg'ish-bir joyning nomi.

13. Uzluq-sigirlarning kechasi yotadigan joyi. Bugungi kundagi muqobili og'il yokida molxona.

Arg'uchada ham shunday deb atalgan.

14. Ordu-shoh turadigan shahar boshqa varianti O'rda. Shuning uchun Qashqarni Ordukand deyidilar ya'ni shohlar turuvchi shahar demakdir.

15. Ekdi-mol so'yiladigan joy. Bugungi muqobili qushxona.

16. O'ran-Rum viloyati yaqinida shimoliy chegarasidagi bir joy nomi.

17. Ashchan-Xitoyga borishdagi qo'noq qo'nib o'tadigan joy ismi.

18. Azg'irak-azg'irak suvi yag'molar shahridagi bir suvning nomi.

19. Erkukluk-shaftoli o'sadigan joy, shaftolizor

20. Qeram-yerto'la, podval. Yuqori va quyi chinliklar tilida iste'molda bo'lgan.

21. Taman-Qashqar o'rtasidan o'tuvchi soy.

22. To'nak-zindon, qamoqxona. Barsag'an qavmi tilida ishlatilgan.

23. Sig'un samur-Bug'roxonga zahar berilgan joy nomi.

24. Sig'ra-ikki tog' orasidagi katta yo'l. Bugungi kundagi muqobili vodiy. Aynan o'g'uzlarda ham vodiy deb nomlangan.

25. To'msa-minbar baland yer o'g'uzcha, aslida esa bu so'z sof turkiycha so'z emas.

26. Chag'la-uch qabilasidagi yaylov nomi. Keyinchalik fonetik o'zgarishga uchrab chayla deb nomlana boshlagan. Bugungi kunda esa yaylov va dalalarda yashash uchun quriladigan uy nomini bildiradi

27. Satma-bog'bonning xavzasu. Qorovul kechasi bog'ni poylashda daraxt tepasida yotish uchun hozirlagan joy nomi.

28. Barxan-quyi Chin ismi. U qashqar yaqinidagi tog' tepasidagi qo'rg'on bo'lib, uning ostida tilla qon bordir.



29.Saxsin-Bulg'or yaqinidagi bir shahar.U keyinchalik Suvor deb atalgan.

30.Tarkan-Shosh Toshkentning qadimiy nomi.Uning asli kelib chiqishi Tash kand bòlib toshdan qurilgan shahar ma'nosini bildiradi.Keyinchalik davrlar almashinuvi va tillarning takomillashuvi natijasida fonetik o'zgarishlarga uchrab Toshkent shaklini olgan.

Xulosa:Umuman olganda bu asar o'zining salmoqdorligi va ma'lumotlarga boyligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.Asarda bugungi an'anavoy va zamonaviy tilshunoslikning deyarli barcha sohalari uchun poudovor vazifasini o'tovchi ma'lumotlar bazasi shakllangan.Shuning uchun ham bugungi kungacha asarning o'rganilishi barchani qiziqtirib keladi."Devonu lug'otit-turk"asarida onomastikaning eng avvaligi ko'rinishlari joy olgan.Mahmud Qoshg'ariy bir joy nomini o'rganishda elatlar va xalqlar orasidagi variantlari va etnik kelib chiqishi o'zi yashagan davrgacha so'z shakli o'zgargan holda yetib kelganmi yo'qmi albatta tekshirib ko'rib o'z fikrini misollar orqali keng izohlab bergan.Ayrim o'rinlarda joy bilan aloqador voqealar aynan joy nomlarining nomlanishiga aloqador vaziyatlar,shaxslar voqealarni keltiradi.Illustirativ materiallardan keng foydalangan.Bu bilan asar qimmatini darajasini yanada oshirgan.Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,"Devonu lug'otit -turk"asari turkiy til grammatikasi va leksikasini atroflicha va keng qamrovli tushuntirishda eng kerakli va muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent:Fan,1985.–B.24

2.Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -T.,2015.–B.42

3.Faxri Kamol. O'zbek tili leksikasi. –Toshkent: O'ZRFA nashriyoti, 1953. – B.29-30

4.Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o,,zbek tililug,,at tarkibining rivojlanish asoslari // O,,zbek tili va adabiyoti. –T., 1994 -No 1

5.Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. –Toshkent:1960.